

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 159 (1220), 2024-yil 9-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON — QOZOG‘ISTON: KO‘P ASRLIK CHINAKAM DO‘STLIK VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK MUNOSABATLARIDA YANGI BOSQICH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog‘iston Respublikasida bo‘lib turibdi.



Ostona shahridagi Oqo‘rda qarorgohida 8-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O‘zbekiston va Qozog‘iston davlat madhiyalari yangradi. Ikki mamlakat yetakchilari faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Subhat avvalida davlatimiz rahbari samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ushbu davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega ekani, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganini ta‘kidladi.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar, qo‘shma korxonalar soni besh barobar ko‘paydi, yuk tashish hajmi

ortmoqda, yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmog‘da.

Yoshlar siyosati va axborot maydonini shakllantirish sohasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish zarurligi ta‘kidlandi. Bu yo‘nalishda kompleks hamkorlik dasturini tayyorlashga kelishib olindi.

Ikki mamlakat parlamentlari palatalari ishtirokida Parlamentlararo forum tashkil etilishi qo‘llab-quvvatlandi.

Tovar ayirboshlash hajmini, eng avvalo, o‘zaro bozorlarni shakllantirish va uchinchi mamlakatlardan importning o‘rnini bosish hisobiga yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Shu ma‘noda, hukumatlarga oy yakuniga qadar tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha alohida dastur qabul qilish topshirildi.

Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadida joriy sammitga qadar umumiy qiymati 7 milliard dollarlik yangi bitim va shart-nomalar portfeli ishlab chiqildi.

Ular orasida energetika, transport va logistika, metallurgiya, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohaslarida, shuningdek, hududlar o‘rtasidagi loyihalar bor.

Sirdaryo viloyatida Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi qurilishini jadallashtirish va u yerda korxonalarni joylashtirishga kelishib olindi.

Yirik loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qo‘shma investitsiya jamg‘armasini tashkil etish masalasi o‘rganiladi.

Tranzit yuk tashish uchun qulay sharoitlarni ta‘minlash, qo‘shma logistika majmualarini qurish, ikki mamlakat o‘rtasida avtomobil va temir yo‘l yo‘nalishlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari tomonlami qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Shundan so‘ng Oqo‘rda qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi

Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Qozog‘iston rahbari va xalqiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi hamda bu kun O‘zbekiston — Qozog‘iston hamkorligi tarixida alohida ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidladi.

— Bugun biz Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisini o‘tkazmoqdamiz. Bu mamlakatlarni o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojida tarixiy voqea hisoblanadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston — Qozog‘iston munosabatlari yuqori sur‘atda rivojlangani alohida qayd etildi.

Tashrif doirasida Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlari, biznes-forumi, siyosiy maslahatlashuvlar, tahliliy markazlar forumi, intellektual o‘yinlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Kino kunlari, ko‘rgazmalar, konsertlar va boshqa ko‘plab tadbirlar davom etmoqda.

Ikki mamlakat rahbarlari 2024-2034-yillarga mo‘ljallangan strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilinishini mamnuviyat bilan qayd etdilar. Bu dastur O‘zbekiston — Qozog‘iston do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarida yangi sifat bosqichi boshlanganini anglatadi.

Majlis davomida davlatimiz rahbari bir qator ustuvor vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

Avvalo, xalqaro tuzilmalar doirasida pozitsiyalarni muvofiqlashtirish va umumiy manfaatlarni samarali ilgari surish muhimligi ta‘kidlandi.

Muloqotlar natijadorligini oshirish, Parlamentlararo forumni ta‘sis etish, Ekspertlar kengashining qizg‘in ishini davom ettirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Tovar ayirboshlash hajmini yaqin yillarda 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlarini atrofi-cha muhokama qilindi. Shu maqsadda oy oxiriga cha alohida dastur qabul qilindi. Bunda bozorlarni o‘zaro shakllantirish, mavjud cheklovlarni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi sanoat kooperatsiyasining yangi strategiyasini qabul qilish zarurligini ta‘kidladi.

Tomonlar kecha bo‘lib o‘tgan biznes-forumi va ishlabarmonlik uchrashuvlari yakunlari bo‘yicha 7 milliard dollarlik salmoqli kelishuvlar imzolanganini ijobiy baholadilar.

Gap energetika, logistika, qurilish, kimyo, elektrotexnika, to‘qimachilik, agrosanoat va boshqa sohalardagi hamkorlik haqida bormog‘da.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirishni jadallashtirish va istiqbolli loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shma jamg‘arma tashkil etish masalasini o‘rganishga kelishib olindi.

Iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan hududlar o‘rtasidagi aloqalar strategik sheriklikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Forumni barcha viloyatlar va markaziy shaharlarni qamrab olgan holda Hududlar kengashiga aylantirish va uning birinchi yig‘ilishini kuzda Samarqandda o‘tkazishga qaror qilindi. Hukumatlarga aniq kelishuvlarga erishish uchun hududlarga o‘zaro tashriflar jadvalini tasdiqlash topshirildi.

Energetika quvvatlari va infratuzilmasini qurish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirishga tayyorlik bildirildi. Yirik mintaqaviy loyihalarni, eng avvalo, Qambarota GES qurilishini tayyorlash ishlari jadallashtirildi.

Transport va tranzit sohasida ishlabarmon doiralarni jalb etgan holda ikki mamlakat o‘rtasida yangi transport yo‘laklarini qurish loyihalarini ishlab chiqishga kelishib olindi. Bundan tashqari, zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish ishlarini kuchaytirish muhimligi ta‘kidlandi.

Mintaqada sudan foydalanish masalalariga yagona yondashuv mavjudligi qayd etildi. Ishonchli huquqiy bazani shakllantirish, suv xo‘jaligi obyektlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish ishlari davom ettiriladi.

Madaniyat, ta‘lim, yoshlar va turizm sohalaridagi almashinuvlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

— Shu kunlarda Ostona O‘zbek kinosi kunlari, ko‘rgazmalar, festivallar, konsertlar o‘tkazilmog‘da. “Zakovat” intellektual o‘yini muvaffaqiyatli o‘tdi. Bunday tadbirlar yoshlarimizni yanada yaqinlashtiradi, ularni umumiy tariximiz va qadriyatlarimiz bilan yaqindan tanishtiradi, — dedi davlatimiz rahbari.

Madaniy-gumanitar hamkorlik bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini ham bunga xizmat qiladi.

Tomonlar Markaziy Osiyoda integratsiya va hamkorlikni chuqurlashtirish tarafdori ekanliklarini tasdiqladi. Ta‘kidlanganidek, Maslahat uchrashuvi mintaqa oldida turgan vazifalarni birgalikda hal etish va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan mintaqaviy kun tartibini ishlab chiqishning samarali mexanizmiga aylandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va boshqa tuzilmalar doirasida yaqin va ochiq muloqotni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev Qosim-Jomart Toqayevni Davlatlararo oliy kengashning ikkinchi majlisini o‘tkazish uchun O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Tashrif dasturi doirasida Ostona shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog‘iston Respublikasining “Oltin Qiron” (“Oltin burgut”) ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Qardosh mamlakatning oliy davlat mukofotini O‘zbekiston yetakchisiga Prezident Qosim-Jomart Toqayev tantanali ravishda topshirdi.

Davlatimiz rahbari ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi nomidan samimiy minnatdorlik bildirib, bunday yuksak mukofot ikki xalqning ko‘p asrlik chinakam do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlash bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlarga berilgan baho, shuningdek, O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlarini yangi tarixiy bosqich — strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga olib chiqish sari mustarak intilishlarning e‘tirofi ekanini ta‘kidladi.

“Oltin Qiron” oliy ordeni bilan davlat arboblari Qozog‘iston bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun taqdirlandi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Olmaota shahrida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti hamda Chirchiq shahrida M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston davlat universitetining filiallarini tantanali ravishda ochdilar.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON PREZIDENTLARINING BIRGALIKDAGI SA‘Y-HARAKATLARI

Markaziy Osiyo xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtisodiy rivojlanishning yangi markaziga aylandi

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Qozog‘istonga davlat tashrifi haqida

Shu kunlarda Ostona shahrida kechayotgan muhim siyosiy voqealar xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ishlabarmon va ekspert doiralari vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo‘lmog‘da. Xalqaro ekspertlarning ta‘kidiga ko‘ra, O‘zbekiston va Qozog‘iston yetakchilari Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev o‘rtasidagi sammit mintaqa davlatlarining sa‘y-harakatlarini yanada birlashtirish, o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, kuchli xalqaro hamkorlik bilan munosabatlarni mustahkamlashga bo‘lgan yuqori intilishni yaqqol namoyon etdi.



Tashrif dasturi doirasida Ostona shahrida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Qozog‘istonning “Oltin Qiron” (“Oltin burgut”) ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Mukofot Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan davlatimiz rahbariga mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun topshirildi.

Davomi 2-beta



QO‘SH OLTINLAR QUVONCHI

O‘ZBEKISTON SPORTCHILARI MEDALLARNI SHODALAB JAMG‘ARISHNI BOSHLADI

Parij Olimpiadasi dasturidan joy olgan kechagi bahslar O‘zbekiston olimpiya tarixiga zarhal harflar bilan bitiladigan bo‘ldi. Bu oqshom sportchilarimiz shohsupaning eng yuqorisiga ko‘tarilib, delegatsiyamizga qo‘shaloq oltin medallar shodasini tuhfa etdi.

Ayni kunlarda Parijda bo‘lib o‘tayotgan Olimpiya o‘yinlari hal qiluvchi pallaga kirdi. To‘g‘ri, ko‘plab sport turlari bo‘yicha o‘yinlar yakuniga yetdi, ayrim davlatlar delegatsiyasi uchun nufuzli musobaqa tugadi. Lekin to‘rt yillikning

eng muhim pallalariga hamohang tarzda sportchilarimiz uchun ahamiyatli, medallar shodasi taqdiri hal bo‘ladigan fursat boshlandi.

Davomi 2-beta



O'ZBEKISTON – QOZOG'ISTON: KO'P ASRLIK CHINAKAM DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNICHILIK MUNOSABATLARIDA YANGI BOSQICH

Boshlanishi 1-betda

O'zbek va qozog' oliyohlari filiallarining o'zaro ochilishi ikki qardosh mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning jadal rivojlanayotganidan yana bir dalolat bo'ldi.

Mazkur ta'lim muassasalarida talab yuqori bo'lgan texnik yo'nalishlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanadi.

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari "Sian — Xorg'os — Olmaota — Sariyog'och — Toshkent" yo'nalishi bo'yicha birinchi yuk poyezdining yetib kelishiga bag'ishlangan marosimda ham ishtirok etdilar.

Yuk poyezdi Sian shahridagi Qozog'iston — Xitoy terminalidan "Xorg'os" quruq portiga yo'l oldi. U yerda konteynerlar qayta o'rtildi va Qozog'iston temir yo'llari bo'yab "Sariyog'och" stansiyasi orqali so'nggi manzilga — "Toshkent" stansiyasiga jo'natildi.

Ushbu yo'nalish yuk tashish vaqtini qisqartirib, savdo hajmini oshirishga kuchli turki beradi.

Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Qo'shma bayonot hamda Davlatlararo oliy kengashning 2024-2034-yillarda strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturini tasdiqlash va Tashqi ishlar vazirlari kengashini tuzish to'g'risidagi qarorlarini imzoladilar.

Tashrif doirasida ikki tomonlama hamkorlikning keng ko'lamli masalalarini qamrab olgan hujjatlar to'plami qabul qilindi. Bular, jumladan:

— Davlat chegarasi rejimi to'g'risidagi hukumatlararo bitim;

— Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari va xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitimlarga qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi bayonnomalar;

— 2024-2025-yillarda madaniy-gumanitar hamkorlik bo'yicha hukumatlararo tadbirlar rejas;

— Qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Iqtisodiyot vazirlari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida bayonnomalar;

— Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish va raqobat siyosati sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonnomalar;

— O'zbekiston — Qozog'iston Ekspertlar kengashini ta'sis etish to'g'risida memorandum;

— O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari ko'mitasi va Qozog'iston Respublikasi Otandastar jamg'armasi o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risida bitim;

— 2024-2026-yillarda Toshkent shahar hokimligi va Ostona shahar hokimligi o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amaliy harakatlar rejas.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlariga izoh berdilar.

O'zbekiston rahbari birgalikdagi tizimli va amaliy sa'y-harakatlar tufayli O'zbekiston — Qozog'iston hamkorligini

ittifoqchilik munosabatlaridek eng yuqori bosqichga olib chiqishga erishilganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

— Biz ko'p qirrali munosabatlarimizda yangi sahifa ochdik — Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisini o'tkazdik. Ushbu format davlatlararo hamkorlikning eng yuqori darajasi ifodasi bo'lib, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning yaqin aloqalari, ularning barcha yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlashga qat'iy intilishini yaqqol namoyon etadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muzokaralar chog'ida parlamentlarning ikki palatasi ishtirokida Parlamentlararo forum tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi. Hamkorlikning yana bir yangi shakli — Tashqi ishlar vazirlari kengashini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, madaniyat sohalaridagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo'yicha aniq kelishuvlar qabul qilindi.

Qo'shma bayonot imzolandi hamda har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 2024-2034-yilgacha mo'ljallangan Strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilindi.

Muzokaralarda hududlararo aloqalarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Yetakchilar ikki mamlakatning barcha viloyatlarini jalb qilgan holda Hududlararo hamkorlik forumini Hududlar rahbarlari kengashiga aylantirish tashabbusini ilgari surdilar.

Oy yakuniga qadar tovar ayirboshlash hajmini keskin oshirishga qaratilgan kompleks dastur qabul qilindi. Tomonlar, shuningdek, yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi qurilishini tezlashtirishga kelishib oldilar.

Bundantashqari, ustuvor yo'nalishlardagi qo'shma loyihalarni moliylashtirish maqsadida O'zbekiston — Qozog'iston investitsiya fondini tashkil etish masalasi ko'rib chiqiladi.

Muzokaralar kun tartibidan transport va logistika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhim o'rin egalladi. Yuk tashish hajmini oshirish uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni yaratish, avtomobil va temir yo'llarni qurish va modernizatsiya qilishni jadallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yana bir strategik yo'nalish — oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Ikki mamlakat hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yetkazib berish bo'yicha aniq kelishuvlar qabul qilindi.

Suvdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish masalalarida yaqin hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, fan, ta'lim va sport sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro platformalar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, SHHT, MDH, Turkiy davlatlar tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash, "Markaziy Osiyo plus" formatlari doirasidagi tashabbuslarni o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettiradilar.

9-avgust kuni Ostona shahrida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi iqtisodiy integratsiya va butun mintaqaviy

jadal rivojlanishiga kuchli sur'at bag'ishlashi alohida ta'kidlandi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi yakunlari va erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini har tomonlama mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Ostona shahrida o'zbek xalqining buyuk farzandi, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykalini tantanal ravishda ochdilar.

Davlatimiz rahbari Qosim-Jomart Toqayevning Alisher Navoiyga haykal o'rnatish tashabbusi uchun samimiy minnatdorlik bildirib, Qozog'iston poytaxti markazida muhtasham yodgorlik bunyod etilgan qozog' xalqining qardosh O'zbekistonga bo'lgan chuqur hurmatining yorqin ifodasi ekanini ta'kidladi.

— Buyuk faylasuf va insonparvar shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat o'zbek xalqiga, balki butun dunyoga tegishli noyob boylikdir. Navoiy asarlari XVI asrdayoq italyan va nemis tillariga tarjima qilingan bo'lsa, bugungi kunda dunyoning deyarli barcha tillarida yangramoqda. Asrlar davomida hayotning o'ziga xos ensiklopediyasi bo'lgan uning ijodiy millionlab insonlarni hayratga solib, ruhlantirib kelmoqda, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Hazrat Alisher Navoiyning ulkan xizmatini shundaki, u o'zbek adabiyotining va o'zbek adabiy tilining asoschisidir.

Haykali Toshkentning markaziy maydonlaridan birini bezab turgan qozog' xalqining buyuk farzandi, qozog' adabiyotining mumtoz namoyandasi Abay Qo'nonboyev

Sharqning boshqa buyuk shoirlari qatori Alisher Navoiy ham o'zining ustoz deb bilgan.

Navoiy va Abay ijodiy abadiyat, do'stlik, muhabbat va sadoqat she'riyatidir. Ularning falsafiy qarashlari millatning ma'naviy yuk-salishida bebaho manba hisoblanadi.

2020-yilda marhum qozog' shoiri Nesipbek Aytuli Alisher Navoiyning eng muhim asari — "Xamsa"ni qozog' tiliga tarjima qilib, nashr etdi va ushbu kitobga so'zboshi shaxsan Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev tomonidan yozildi.

— Ishonchim komilki, Alisher Navoiy haykali ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va qarodoshlik rishtalarining yana bir yorqin ramziga aylandi, uning merosi esa yana ko'plab avlodlarni buyuk yutuqlarga ilhomlantiradi, — dedi so'zining yakunida O'zbekiston Prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahriga tashrifi doirasida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon san'at ustalarining "Do'stlik kechasi" tantanal konsertida ishtirok etdi.

Tadbirda Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sa'dir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, sammitning faxriy mehmoni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ham qatnashdi.

Folklor-etnografik ansambllar va estrada san'atkorlarining rang-barang chiqishlari, milliy qo'shiq va raqslar xalqlarimizning mustarakligi va madaniy yaqinligini yaqqol namoyon etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O'ZA

QO'SH OLTINLAR QUVONCHI

O'ZBEKISTON SPORTCHILARI MEDALLARNI SHODALAB JAMG'ARISHNI BOSHLADI



Boshlanishi 1-betda

Zero, kechagi bahslargacha sportchilarimiz 3 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, bugun medallar shodasi 2 ta oltin bilan bo'yd. Dastlab bundan oldingi "Tokio — 2020" da O'zbekiston terma jamoasi tarixida taekvondo bo'yicha birinchi oltin medalni qo'lga kiritgan Ulug'bek Rashitov bu safar ham dunyoda tengsiz ekanini isbotladi. Shu tariqa u ketma-ket ikkinchi bor Olimpiya o'yinlari oltin medalini sohibiga aylandi. O'zbekiston delegatsiyasi safiga ikkinchi oltinni taqdim etdi. Delegatsiyamizga uchinchi oltin medalini esa yana bir Olimpiya o'yinlari g'olibi Hasanboy Do'smatov olib keldi.

Yana 4 bokschimiz Parij Olimpiadasi medallarini naqd qilgan. Biz, butun o'zbekistonliklar ularidan faqat oltin medallarni kutaymiz. Chunki ularning kuch, shijoatiga ishonamiz. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Mana shu kuch, shijoatning ildizi, asl manbaysi qayerda?!

Hech shubhasiz, har bir sportchining iste'dodi, unga yaratilgan imkoniyatdan oqillik bilan foydalana olishi natijadorlikka xizmat qilyapti. Ha, mamlakatimizda barcha sohalar qatori sportga ham katta e'tibor berilgan. Uning samarasini esa shu kunlarda ko'rib, kuzatib boraymiz. Lekin biz aytmoqchi bo'lgan quvvat manbaysi faqat shu emas. Zero, texnikani motor harakatga keltiradi. Dvigatel esa turli qismlardan iborat...

Bir safar tanishimga qo'ng'iroq qilsam, olis viloyatda safarda ekanini aytdi. So'ng "Uydagi muammolardan qochib safarga chiqqandim, ular mendan oldin shu yerga kelib bo'lgan ekan", dedi alam aralash kinoya bilan. Ha, qayg'u xususiy mulkka o'xshaydi, qayerda bo'lmang, u faqat o'zingizga tegishli bo'lib qolaveradi. Baxt esa yuqumli. Uni istalgancha bo'lshish, boshqalarga ulashish mumkin. Shu bois, ulug' yozuvchi Lev Tolstoy "Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi", degan edi. Mamlakat ham, aslida, ulkan oiladir. Unda yaxshilik, ezgulik quloq yozgani sari oilaning har bir vakili hayotdan mamnun bo'ladi. Bu, o'z navbatida, umumkayfiyatga ta'sir etadi. Masalan, bugun inson qadri uchun boshlangan islohotlar sabab juda ko'p yurdoshlarimiz hayoti tubdan o'zgardi. "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftari" kabi yangi tajribalar sabab qiyin vaziyatdagi ko'plab

oilalar ijtimoiy muammolariga yechim topdi. Ijtimoiy himoya tizimi islohoti ham real hayotda naf keltiradigan sohaga aylandi. Bugun ijtimoiy himoyaga rostdan ham muhtoj bo'lgan oilalarga, shaxslarga yetarlicha e'tibor berilmoqda. Ularni to'laqonli aholining ijtimoiy faol qatlamiga aylantirish choralari ko'riyapti. Ya'ni faqat moddiy yordam berish bilan cheklanib qolmayotgani yo'q. Ijtimoiy holatidan kelib chiqib, bunday oila vakillarini ish bilan ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida ham juda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada bitta misol keltirmoqchimiz. Shu kunlarda tadbirkorlarning davlatimiz rahbari bilan navbatdagi muloqotiga hozirlik ko'rilmogda. Shu jarayonda mutasaddilarga tadbirkorlardan biri muammo aytdi. Ya'ni uning korxonasi, aslida, Vodiya. Ammo Samarqand va Navoiyda ham kichik sexi bor. Tuman hokimlari esa u ekspost qilayotgan mahsulotlar o'z hududi hisobiga yozilishi uchun tadbirkorga bosim qilmoqda. Kimdir tuman hokimini yomonlashi mumkin. Ha, ular tadbirkorga bosim o'tkazib xato qilgan. Ammo nima uchun shunday yo'l tutdilar?!

Sabab o'zi rahbarlik qilayotgan tumanning iqtisodiy ko'rsatkichini yaxshilash ilinjida. Tadbirkor esa ayni vaziyatga yechim so'rab hukumat vakillariga bevosita murojaat qila olyapti. Zarurat tug'ilsa, bevosita Prezidentga ham o'z muammosini ochiq aytdi. Shuning o'ziyoq iqtisodiy kompleksdagi jonlanishdan dalolat.

Yaqin qo'shnichilik, ochiq va ko'p qirrali tashqi siyosat. Xorijdagi vatandoshlar, dunyoning istalgan burchidagi yurdoshlarimiz huquqini himoya qilish kabi barcha yo'nalishlarda shunday ijobiy o'zgarishlarni sanash mumkin. Bularning barchasi jamlanib, takror aytayotganimiz INSON QADRINI ULUG'LAHSHga xizmat qilmoqda. Barcha teng ko'rilmog, inson qadri baland bo'lgan o'zlar o'zlar, baraka bo'ladi. O'zbekiston degan ulkan oilaning sportchi o'g'il-qizlari qo'lga kiritayotgan yutuqlari zamirida ana shu BAXT berayotgan QUVVAT bor!

**Avaz XUDOYQULOV,
Boboravshan G'UZIDDINOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari**

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON PREZIDENTLARINING BIRGALIKDAGI SA'Y-HARAKATLARI

Markaziy Osiyo xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtisodiy rivojlanishning yangi markaziga aylandi

Boshlanishi 1-betda

**Roy Entoni ROJERS,
Malaya universiteti qoshidagi Osiyo va Yevropa instituti direktori o'rinbosari (Malayziya):**

— O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari o'rtasidagi mustahkam tarixiy aloqalar va shaxsiy do'stona munosabatlar tufayli o'zbek-qozog' munosabatlarining bugungi holati alohida dinamika, o'zaro tushunish va ishonchning yuksak darajasi bilan ajralib turadi.



**Vladimir GALPERIN,
Latviyadagi O'zbekiston savdo uyi direktori:**

— Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayevning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllandi. Mintaqa xalqaro diplomatiya, siyosiy faollik va iqtisodiy rivojlanishning yangi markaziga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga ushbu tashrifi nafaqat ikki mamlakat xalqlari, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi ravnag'i uchun ham tarixiy ahamiyatga ega deb hisoblayman.

Tashrif O'zbekiston — Qozog'iston do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida yana bir muhim bosqich bo'ldi. Oliy davlatlararo kengashning birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Shuningdek, kengashning 2034-yilgacha strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilindi, o'zaro hamkorlikning yangi formati — Tashqi ishlar vazirlari kengashi tashkil etildi.

Savdo-iqtisodiy aloqalar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar, qo'shma korxonalar soni 5 barobar ortdi, yirik hamkorlik loyihalari amalga oshirilmogda.

Shuningdek, tomonlar bugun ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qo'shma loyihalarni

moliylashtirish maqsadida O'zbekiston — Qozog'iston investitsiya jamg'armasini tashkil etish masalasi ko'targani ham e'tiborga molik. Erishilgan kelishuvlar yaqin yillarda yuk tashish hajmini oshirish, avtomobil va temir yo'llarini qurish hamda modernizatsiya qilishni jadallashtirish, tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkonini beradi.

Muzokaralar yakunlari O'zbekiston va Qozog'istonning strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlarini har tomonlama mustahkamlash, shuningdek, Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish va butun mintaqani jadal rivojlantirishga intilishini yana bir bor namoyon qildi.

**Aleksandr VOROBYOV,
Rossiya Fanlar akademiyasining
Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi:**

— O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tizimli shakldir. Shu bois, O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari o'rtasidagi muzokaralar nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun mintaqacha uchun katta ahamiyatga ega.



Shubhasiz, muzokaralar natijasida Toshkent va Ostona o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar, transport-logistika, energetika, shuningdek, ikki davlat tomonlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash yo'nalishi davom ettiriladi. Shu bilan birga, mintaqada ikki va ko'p tomonlama munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi tashabbus bugun, birinchi navbatda, o'z mahsuloti savdosini kengaytirish va qo'shni davlatlar — Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston hududidan

Nasri Al-SAAD, "Premium Construction" kompaniyasi boshqaruvchi hamkori (Qatar):

— Ushbu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi ittifoqchilik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo'lidagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi aloqalar misli ko'rilmagan darajaga ko'tarilib, konstruktiv va o'zaro manfaatli sheriklikning mukammal namunasini namoyish etmoqda.

Ikki mamlakat yetakchilari xalqaro hamkorlikning tobora ommalashib borayotgan mexanizmlariga aylantirilgan Maslahat uchrashuvlari va "Markaziy Osiyo plus" platformalari orqali mintaqani rivojlantirish va sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish tarafdori hisoblanadi. Ular global va mintaqaviy siyosat masalalarida ham bir-birlarini faol qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan biri sanaladi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sib bormogda va 2023-yilda 4,4 milliard dollarga yetdi. O'zbekistonda qozog' kapitali ishtirokidagi korxonalar va Qozog'istondagi o'zbek kompaniyalari soni ham ortdi. Shuningdek, investitsiya, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, farmatsevtika, qurilish sohalarida ikki tomonlama hamkorlik kengaymogda.

O'zbekiston va Qozog'iston eng global muammolarni birgalikda hal eta oladigan mintaqaning asosiy iqtisodiyotlari hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlarining izchil rivojlanishi butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishda ham o'z ifodasini topmogda.

Bugungi kunda rasmiy Toshkent va Ostona o'rtasidagi konstruktiv munosabatlar ikki davlatning uzoq muddatli manfaatlariga to'liq javob beradi hamda Markaziy Osiyoning bepoyon mintaqasida tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.



O'zbekiston va Qozog'iston yaxshi qo'shni davlatlar sifatida butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va farovonlikni ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmogda.

Bugun butun dunyo mintaqada qulay siyosiy muhit yaratilganini, Markaziy Osiyo rivojlangan, barqaror, investitsiya va hamkorlik uchun jozibador manzilga aylanib borayotganini e'tirof etmogda. Mintaqaviy va hatto mintaqalararo aloqalarni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar vujudga kelyapti.

"Dunyo" AA

ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH BO'YICHA
O'ZBEKISTON TAJRIBASIXALQARO MIQYOSDA O'RGANISH VA QO'LLASH UCHUN
MUVAFFAQIYATLI MODEL SIFATIDA KO'RILMOQDA

Ishsizlik — iqtisodiy faol aholining bir qismini tashkil etuvchi, ishlashga qodir, lekin ish topa olmayotgan odamlar mavjudligi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozir dunyo bo'ylab ishsizlar soni pandemiyagacha bo'lgan darajadan pastga tushgan. Biroq bu boradagi raqamlar yil sayin oshib borayotgani xavotirli. Shu bois, global miqyosda ushbu muammoga qarshi kurashish tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

orqali joriy yilning birinchi yarim yilida doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda 2,9 million aholining bandligi ta'minlandi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “yangi mehnat.uz” axborot tizimini takomillashtirish orqali aholi bandligi dasturi ijrosi bilan bog'liq jarayonlarni onlayn kuzatib borish imkoniyatini yaratish vazifasi belgilangan.

Ishchi xodimlarning mehnat muhofazasini ta'minlash ham e'tiborda. Shu maqsadda bugungi kungacha Xalqaro mehnat tashkilotining 22 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Ayni paytda yana 3 ta konvensiyani ratifikatsiya qilish bo'yicha ishlanyapti.

Joriy yilning o'tgan davrida noqonuniy ishdan bo'shatilgan 254 xodim ishga tiklandi hamda 7349 nafarining 31 milliard so'mdan ortiq ish haqi undirib berildi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar natijasida vazirlikka tushadigan murojaatlar soni keskin kamaygan. Xususan, ayni paytda qariyb 128 mingta murojaat kelib tushgan, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,2 foiz kam.

Albatta, bunday natijalarga erishish o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Mamlakatimizdagi inson qadri va ulug'lashga qaratilgan xalqparvar siyosat tufayli bugun dunyoda ro'y berayotgan global ijtimoiy-siyosiy muammolarga qaramay, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari ochish va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida



ko'rsatdi. Uning fikricha, bu mazkur tizimning yuqori darajada manzilligi va individual xarakterga egalidir.

Bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish, mahallalarning iqtisodiy rivojini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish maqsadida “mahalla yetiligi” faoliyati yo'lga qo'yildi. Xususan, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalar bo'yicha tuman (shahar) hokimlari yordamchilari ish yuritayapti. Ularning faoliyati samarasida aholi orasida tadbirkorlik rivojlanyapti.

Hokim yordamchisining yangi loyihalari

Hokim yordamchilari hududlarning o'sish nuqtalaridan kelib chiqib, yangi va no'an'anaviy faoliyat turlarini tashkil etish, har bir insonni hunarli qilish, oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirmoqda. Toshkent viloyati Zangiota tumani Qirguzar mahallasida faoliyat yuritayotgan hokim yordamchisi Asiya Qudaybergenovaning ish tajribasini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Uch mingdan ko'proq aholi yashaydigan ushbu mahallaning o'sish nuqtasi sifatida qandolchilik belgilangan. Zero, O'zbekiston bo'ylab ko'plab savdo nuqtalari bo'lgan “Stadkiy dar” korxonasi shu mahallada joylashgan. Bu aholini ish bilan ta'minlash uchun katta imkoniyat. Hokim yordamchisi vaziyatdan unumli foydalanib, korxonada va aholi o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga intiladi. Natijada sakson kishi korxonada ishlayotgan bo'lsa, yana 180 kishi kasanchilikda band.

Shu bilan birga, Uychi, Sayxunobod tajribasi asosida tomorqadan samarali foydalanish yo'llari izlanyapti. Joriy yilda beshta oilaga urug'lik va kredit ajratildi. Hozir ular tomorqasida bodring, pomidor, kartoshka yetishtirib, bozorga sotmoqda.

Shu yil bahorda o'z yo'nalishida yaxshi natijalarga erishayotgan ilg'or va tashabbuskor hokim yordamchilaridan bir guruhi Turkiyaga borib, tajriba almashib qaytdi. Ularning safida Asiya ham bor edi. U turkiyalik hamkasblari

sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

Mahallabay va xonadonbay ishlash o'ziga xos muhim yo'nalishga aylandi. Ayniqsa, bu tizim dunyo mamlakatlarining iqtisodiy holatidan qat'i nazar, barchasi uchun birdek katta muammo sanalgan kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.



Jumladan, mamlakatimizda kambag'allik va tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan transformatsiya dasturlari natijasida 2021-yil boshidan buyon kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizgacha kamayib, deyarli 2 million kishi kambag'allikdan chiqarilishida ushbu tizimning alohida o'rmi bor.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Abhijit Banerji qayd etganidek, “O'zbekistondagi mahallabay tizimi har bir muhtoj oilani kambag'allikdan olib chiqish bo'yicha o'zining noyob retseptiga ega”. Banerji, shuningdek, O'zbekistonning kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha yondashuvidagi asosiy o'ziga xoslikni ajratib

bilan muloqotda mahallasiga xorijiy investitsiya jalb etishga doir loyihalar haqida so'zlab berdi. Uning boshida loyihalari turkiyalik mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi va uni Turkiyada ham joriy etishga taklif tushdi.

Masalan, uy tozalash xizmati bo'yicha taklif shunday e'tiborli loyihalardan biri bo'ldi. Asiya esa bu g'oyani mamlakatimizda ro'yobga chiqarish niyati borligini aytdi.

Mana, oradan ko'p o'tmay, loyiha uning mahallasida yo'lga qo'yildi va qisqa vaqt ichida samarasini bera boshladi. Hozir bu yo'nalishda ish boshlagan tadbirkor o'z oila a'zolari bilan bir qatorda yana oltita yangi ish o'rmi yaratdi. Aholi tomonidan bu xizmatga murojaatlar kun

Bandlik



Hokim YO'LDOSHEV olgan suratlardir.

sayin ko'payib, talab va ehtiyoj oshmoqda. Bu esa ushbu tadbirkorlik yo'nalishini yanada kengaytirish, ish o'rinlari tashkil etishga zamin yaratadi.

Asiya esa bu natijalar bilan cheklanib qolmay, yangi loyihalar ustida izlanishni davom ettiryapti. Kelgusida xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda oziq-ovqat sanoati sohasida yana bir yirik loyihani ro'yobga chiqarish bo'yicha ishlanyapti. Hozir yurtimiz mahallalarida faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari orasida Asiya singari bilimdon, izlanuvchan, malakali mutaxassislar ko'pchilikni tashkil etadi.

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi ma'lumotiga ko'ra, ularning samarali faoliyati natijasida birinchi yarim yilida 2 million 700 ming fuqaroning daromadli mehnat bilan bandligi ta'minlandi.

Xususan, ularning 1 million 105 ming nafari doimiy va mavsumiy ish joylariga joylashtirildi, 1 million 300 mingi o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olindi, 97 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlikka, 22 ming nafari hunarmandlikka va 56 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 143 ming nafariga esa ijara asosida yer ajratildi.

Hokim yordamchilari tavsiyanomasi bilan 157 mingta loyihaga 2 trilyon 700 milliard so'm imtiyozli kredit, 21 mingdan ortiq ishsizga 108 milliard so'm miqdorida subsidiya berildi.

Tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning o'tgan davrida 88 ming xotin-qizga 1 trilyon 300 milliard so'mlik imtiyozli kredit ajratildi. Bu respublika bo'yicha imtiyozli kredit oluvchilarning 56 foizini tashkil etadi. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi hisobidan 16 ming 648 fuqaroga 87 milliard so'm subsidiya ajratildi.

Joylarda qiymati 8,7 trilyon so'mlik qariyb 114,5 mingta mikroloyiha ishga tushirilishi hisobiga 220 ming 300 dan ortiq ish o'rni ochildi. Ushbu loyihalarining 47 foizi xotin-qizlarga tegishli. Umuman, mahallalarda 41 mingta yuridik va 92 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Hokim yordamchilari faoliyati samarasi o'laroq, keyingi 2 yil davomida ixtisoslashuv yo'nalishlarida band bo'lgan xonadonlar soni 2022-yildagiga nisbatan 18 foiz ko'paydi. Shuningdek, kichik ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahallalar

2022-yilda 470 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 739 taga yetdi. Savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi mahallalar soni 275 taga, hunarmandlikka ixtisoslashganlari soni 49 taga oshgan.

Bugungi kunga kelib, turizmga ixtisoslashgan mahallalar soni 33 taga yetdi, 4 ta mahalla esa axborot texnologiyalari yo'nalishiga ixtisoslashtirildi.

Mahallaning mo'jazzina ishlab chiqarish nuqtasi

Toshkentlik Nargiza Nurmatova bolaligidan mohir chevarlar ishini havas bilan kuzatib, shu kasbga mehr qo'ydi. 16 yoshidan mahallasida non chiqargan tikuvchi ayollardan kasb sirlarini o'rgandi. Biroq o'zi mehr qo'ygani kasbi bo'yicha zamonaviy korxonalarda ishlash unga ko'p yillar armon bo'ldi. Chunki oila yumushlari, farzandlari tarbiyasidan ortib, uzoqqa qatnab

— Tadbirkorlikni boshlaganimga olti yildan oshdi, — deydi Oyul Rahmonova.

— Dastlab ijara binolarda ishladim, muqim ish joyi bo'lmagani uchun tez-tez ko'chishga to'g'ri keldi. Bu ish rivojiga ta'sir ko'rsatmay qolmasdi. Shu jihlatlar e'tiborga olinib, davlatimiz tomonidan biz kabi tadbirkorlarga ko'mak berilayotgani soha rivojiga katta turki bo'lyapti. Men ham bu imkoniyatdan foydalanib, ish faoliyatimni kengaytirdim. Hozir yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida ishlab, ularga buyurtma qilgan mahsulotlarini yetkazib beryapmiz.

Korxonada ishchilarining aksariyati ilgari ishsiz bo'lgan ayollar. Bu kabi opa-singillarimizning ishli bo'lishi oilalarning daromadini oshirish va aholi bandligini ta'minlashda samarasini bermoqda. Qolaversa, mahallalarga sanoatni olib kirish, hunar o'rgatish orqali xotin-qizlarning oila va jamiyatda faolligini oshirishga erishilmoqda.

Albatta, ushbu kichik korxonada bugun mamlakatimizda ish yuritayotgan va aholi bandligini ta'minlashda o'z o'rini namoyon etayotgan ishlab chiqarish tuzilmalarining kichik bir bo'g'ini. Bugungi kunda bunday zamonaviy korxonalar ko'payib boryapti. Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, respublikamizda 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 41 mingdan ortiq yangi kichik tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan.

To'qimachilik sanoati yo'nalishida ham ishlab chiqaruvchilar faoliyati rivojlanmoqda. Buning natijasida 55 ta davlatga to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinayotir. Tabiiyki, bu imkoniyat, avvalo, aholi bandligini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirishda o'z samarasini berayotir.

Yurtimizda mehnat munosabatlari takomillashtirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali bandlikni ta'minlash yo'nalishidagi bunday ijobiy natijalar xalqimiz dunyoqarashida va hayotida o'zgarish yasayotgani, albatta, katta yutuq'imizdir. Bu boradagi o'ziga xos tajribamiz xalqaro miqyosda ham e'tirof etilayotgani esa yanada quvonarli.

O'tgan oy mamlakatimizga tashrif buyurgan Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Jilber Ungbo mehnatkashlar huquqlarini ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va xalqaro konvensiyalarni implementatsiya qilish borasidagi yutuqlarimizga yuqori baho bergani fikrimiz isbotidir. XMT yurtimizning bu boradagi tajribasini xalqaro miqyosda o'rganish va qo'llash uchun muvaffaqiyatli model sifatida ko'rayotgani esa har birimizga ulkan faxr-iftixor baxsh etadi.

Bu “ijtimoiy davlat” tamoyilini o'z zimmasiga olgan mamlakatimizda inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish borasidagi xayriy ishlarining muhim natijasidir. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi va uni joriy yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi asosida bu jabhadagi ishlar izchil davom etyapti.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda keyingi yillarda bandlik yo'nalishidagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash va sohani tubdan takomillashtirishga qaratilgan 5 ta qonun, 1 ta kodeks, Prezidentimizning 30 dan ortiq farmon va qarori qabul qilindi. “Aholi bandligi to'g'risida”gi qonun va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi asosida aholi bandligini ta'minlashda



zamonaviy kasbiy va mehnat standartlarini joriy etish, mehnat munosabatlari xalqaro miqyosda tan olingan, ham ish beruvchining, ham xodimning manfaatlarini himoyalash ta'minlovchi huquqiy poydevor yaratildi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lum qilishicha, joriy yilning o'tgan 6 oyida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish maqsadida 113 ming ishsiz kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi. Boshqacha aytganda, o'qishga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobar ko'p yurtdoshimiz jalb etildi. Bunga ko'shimcha tarzda 12 ta yangi kasbga o'qitish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda talabgorlar 30 dan ortiq turdagi kasbga o'qitilmoqda.

Xorijiy tillarni o'rganayotganlar safi kengayib boryapti. Xususan, ayni paytda o'tgan yildagiga nisbatan 5 barobar ko'p — 10 ming yurtdoshimiz chet tillarni o'rganmoqda. 64 ming shaxs chet davlatlarga qonuniy, xavfsiz hamda uyushgan holda ishga yuborildi.

Joriy yilda Sayxunobod, Uychi, G'ijduvon va Zarbdor tumanlari tajribalari asosida hududlarda iqtisodiy kompleks mahallaga tushib ish yuritayapti. Natijada 4 mingdan ortiq mahalla sanoat va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilib, 1 million 600 ming kishining bandligi ta'minlash rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash bo'yicha tizimli kompleks ishlar bajarilmoqda. Xususan, bandlik dasturi doirasida tashkil etilgan ish o'rinlari va band bo'lgan aholini onlayn rejimda kuzatib borish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan “yangi mehnat.uz” elektron platformasi ishga tushirildi. Platforma

2024-yil 9-avgust, 159-son

Ochiq muloqot oldidan

IMKONIYAT

ZLANISHGA YO'L OCHMOQDA



Bu yil qoraqalpog'istonlik ishbirolmonlar uchun omadli keldi. Chunki Prezidentimizning tadbirkorlar bilan an'anaviy ochiq muloqoti Qoraqalpog'istonda o'tkaziladi. Hozir Orolbo'yida mazkur tadbirga jiddiy tayyorgarlik ko'riyapti. Hudud tadbirkorlari nafaqat davlatimiz rahbari bilan yuzma-yuz uchrashadi, balki yirik ishbirolmonlar bilan fikr va tajriba almashadi.

— Bu biz, tadbirkorlar uchun katta imkoniyat, — deydi "Nukus Beton" korxonasi rahbari, "Shuhrat" medali sohibi Qalibek Primbetov. — Masalan, ochiq muloqot doirasida tashkil etiladigan xalqaro biznes-forum hamda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchilari bilan hamkorlikda "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" dasturi doirasida yirik brendlar jalb etilishi yangi hamkorlar topib, ko'p loyihalarni boshlashimizga zamin yaratadi.

Qalibek Primbetov "Nukus Beton" korxonasi ochganiga endi bir yil bo'ldi. Lekin soha u uchun begona emas. Tadbirkorlik sir-asorini otasi — "Nukus Balik" korxonasi rahbari Nurmahamet Primbetov yonida yurib, puxta o'rgandi. 80 yoshli otaxon hali ham o'g'liga yo'l-yo'riq, maslahat berib turadi.

— Bu joyda bir paytlar Nukus qishloq uy-joy qurilishi kombinati bo'lgan, — deydi Qalibek korxonasi faoliyati bilan tanishtirarkan. — Keyinchalik kombinat bankrot bo'lib, qarovsiz qolib ketdi. Uni qazrlari bilan birga qo'shib sotib oldik. Ochiq'ni, qayta tiklash uchun juda ko'p harakat qildik. Katta mablag' va bir necha yillik mehnatimiz ketdi. Nihoyat o'tgan yili ushbu kombinat o'rinda "Nukus Beton" korxonasini ishga tushirdik. Temir-beton mahsulotlar ishlab chiqarish uchun eng zamonaviy texnologik uskunalarni Italiyaning "Weiler" kompaniyasi tomonidan yetkazib berildi. Bundan tashqari, Rossiyadan temir-beton mahsulotlar ishlab chiqarish uchun turli zamonaviy qolip va

uskunalarni sotib oldik. Barcha yuk ko'tarish mexanizmlari qayta tiklandi, zarur muhandislik-texnik kommunikatsiyalar barpo etilib, Yevropa sifatiga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Korxonamizning yillik aylanma mablag'i 2 milliard so'm atrofida. Bugun 25 kishi ish bilan band. Endi korxonani modernizatsiya qilishning ikkinchi bosqichini amalga oshirishni rejalashtiryapmiz. Korxonada har qanday mahsulot buyurtma asosida tayyorlanadi. Uy-joy qurilishi uchun zarur poydevor, beton devor, temir-beton plita, issiq va sovuqdan saqlovchi devor, suv quvuri, qopqoqlar shular jumlasidan.



Qoraqalpog'istonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiya jozibadorligini oshirish, ishbirolmonlik muhitini yaxshilash va yoshlar bandligini ta'minlash borasidagi ishlar tobora jadallashmoqda. Bu jarayonda 2023-yil 12-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya va ishbirolmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyat kasb etyapti. Mazkur qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, unga ko'ra, hudud tadbirkorlik subyektlari 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha qadar foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 2,3 barobar ko'p, degani. Joriy yil boshidan buyon esa 1600 atrofida yangi tadbirkorlik subyekti ish boshlagan. Ularning eksport geografiyasi kengayib, so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar AQSH, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Portugaliya, Bolgariya, Kanada, Avstraliya, Misr, Bangladesh, Filippin, Pokiston, Tailand, BAAga yetkazib berilmoqda.

Bugungi imkoniyatlardan samarali foydalanib kelayotgan hudud tadbirkorlari Prezident ishtirokida bo'lib o'tadigan muloqotni yangi marra va tashabbuslar bilan kutib olishni niyat qilgan.

Minajatin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



Renovatsiya

ESKI SHAHARning

Ko'hna Marg'ilonning "Ipakchi", "Qirguli" mahalla fuqarolar yig'ini hududlaridagi bir qavatli, ma'nan eskirgan turar joylar renovatsiya qilinib, o'rniga zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilishi boshlab yuborildi.

Prezidentimiz joriy yilning 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrif chog'ida aholi farovonligi, yurt obodligi yo'lida boshlangan yangi uy-joylar qurilishini yanada ko'paytirish, hayotbaxsh loyihalarni mahallalargacha olib kirishni belgilab bergan edi. Ushbu loyihalarni asosidagi islohotlar bugun amalga oshmoqda, yuzlab oilalarning asriy orzulari ushalmoqda.

O'tgan asr o'rtalarida qurilgan pastqam binolarda aholi kundalik hayot tarzi uchun zarur bo'lgan oddiy shart-sharoitlar ham deyarli yo'q edi. Tor uy-joylarda ikki-uch oila bir amallab kun ko'rib kelardi. Eski, ko'rimisiz manzaralar, tabiiyki, shahar, mahallalar ko'rki, obodligiga mos tushmasdi.

Bugun bu yerdagi manzara, holat o'zgarimoqda. Ma'nan eskirgan uylar aholi roziligi bilan renovatsiya dasturi asosida buzilib, uning o'rinda ko'p qavatli uy-joylar, dam olish, xizmat ko'rsatish inshootlari qurilyapti. Shuningdek, keng va ravon yo'llar, tabiiy gaz, toza ichimlik suv, elektr ta'minotiga qadar zarur infratuzilma barpo etilyotir.

— Umumiy maydoni 8 gektar bo'lgan hududda 9 va 12 qavatli ko'p kvartirali 39 ta uy qurilishi belgilangan, — deydi Marg'ilon shahri uy-joy bo'limi boshlig'i Orifjon Yo'ldoshev. — Renovatsiya dasturi asosida uy-joylari buzilayotgan mulkdorlarga shu yerning o'zidan qurilayotgan ko'p qavatli uylardan kompensatsiya to'lovizis xonadon beriladi. Asosiy maqsad mulkdorlar huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga munosib shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat.

"Ipakchi", "Qirguli" mahalla fuqarolar yig'ini bugun ulkan qurilish maydonini esga soladi. Zamonaviy qurilish ashyolari ortilgan qudratli texnika vositalari harakati bir zum bo'lsa-da timmaydi. Yana sanoqli kunlardan so'ng dastlabki osmono'par uylar bo'y ko'rsatib, shahar ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

— Xususiy mulk sifatida tegishli bo'lgan eski o'rta uy o'rinda 98 ta xonadonli 9 qavatli uy qurishga kirishdik, — deydi "Safhouse" MCHJ rahbari Jahongir Kamolxonov. — Mulkdorlar bilan imzolangan kelishuvlarga ko'ra, odamlarni



YANGI QIYOFASI

Marg'ilonlonda renovatsiya asosida ko'p qavatli turar joylar qurilishi boshlandi



uy berishyapti. Hamma sharoitlar mujassam bo'lgan maskanda emir-erkin, avvalgi qo'ni-qo'shnilar bilan yashashning zavqi boshqacha-da.

Marg'ilonlonda birinchi "Mahalla massivi" qurilishi bilan bog'liq ish ko'rishini nazorat qilish, mulk egalari huquq va manfaatlarini himoyalash, xullas, mavjud barcha masalalar yechimi bilan shug'ullanadigan maxsus shtab faoliyat boshladi. Bu yerda mulk egalari huquqlari, imtiyoz va imkoniyatlari bo'yicha barcha masalalar yuzasidan bepul huquqiy maslahat berish hamda xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

— Mahallamiz har jihatdan obod, fayzli maskanda aylanib boryapti, — deydi "Ipakchi" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hikmatillo Xudoyberganov. — Ko'p qavatli uylar bitimga qadar uyi renovatsiyaga tushgan fuqarolarga vaqtincha yashab turish uchun uy-joylar berilyapti. Ularga maydoni eski uylardan kam bo'lmalik sharti bilan bepul xonadon taqdim qilinishi turar joylarda ortiqcha sarf-xarajatsiz yashash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ko'p qavatli uylarga yondosh avtoturargoh, bolalar maydonchalari, yo'laklar, yashil maydon va favvoralar qurish belgilangan.

Sirasini aytganda, yangi loyiha eski shaharga ulug'vorlik, ko'tarinkilik baxsh etish bilan birga aholi yashash sharoitlarini yaxshilash, uy-joyga bo'lgan talab va istaklarini qondirish imkoniyatini beradi. Qilinayotgan barcha ishlar odamlar farovonligini yaxshilashga, shahar ko'rkiga ko'rk qo'shishga qaratilgan.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Sherzod QORABOYEV olgan surat.

BESH MILLIONGA YAQIN ISTE'MOLCHI MANFAATI TIKLANDI

40 MILLIARD 500 MILLION SO'M ULAR FOYDASIGA QAYTARILADIGAN BO'LDI



Raqobat davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Qolaversa, innovatsiyalarni rivojlantirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, narxlar barqarorligini ta'minlashda muhim vazifani bajaradi. Umuman, sog'lom raqobat muhitida rivojlanayotgan kichik va o'rta biznes aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy yuksalishning muhim manbayidir.

Shuningdek, raqobat xorijiy sarmoyani jalb etish va xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Rivojlangan raqobat sharoiti O'zbekistonda barcha sohaning birdek rivojlanishi, turmush tarzi yuksalishi va farovonlik uchun zamin yaratadi. Mamlakatimizdagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu, aslida.

Joriy yil 5-avgustda davlatimiz rahbari raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, yirik monopoliyalarni tiyib turish bo'yicha qilinayotgan ishlar raqobat muhitiga ijobiy ta'sir etmoqda. Xususan, keyingi besh yilda 25 tadan ortiq tovar bo'yicha raqobat muhiti yaxshilandi. 7 ta faoliyat turi bo'yicha raqobatni cheklovchi ekslyuziv huquqlar bekor qilindi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 42 foiz kamayib, tadbirkorlik subyektlari soni 1,6 barobar ko'paydi.

O'tgan yili "Raqobat to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Raqobatni

rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga qo'shimcha ta'sirchan vakolatlar berildi. O'rganishlarga ko'ra, ayrim tashkilotlarda raqobatga zid qarorlar qabul qilish, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish, savdoda ustun mavqedan foydalanish kabi holatlar bor. Shu bois, sohadagi ishlar qamrovi va samaradorligini oshirish maqsadida Raqobatni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozorga kirishni erkinlashtirish, tadbirkorlarga teng sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi qadamlar belgilandi.

Masalan, tadbirkorlik subyektlarining bozorga erkin kirishini murakkablashtiruvchi normativ-huquqiy moddalar va ortiqcha talablar bekor qilinadi. Tartibga solish yukini qisqartirishga qaratilgan yengilliklar joriy etiladi. Jumladan, ruxsat beruvchi jarayonlar va litsenziyalar javobgarlikni majburiy sug'urtalash bilan almashiriladi.

— Davlatimiz rahbariga taqdimot davomida qo'mita faoliyatida ochiqlikni kuchaytirish



Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

va xalqchil davlat organi sifatida qayta tuzish borasida qator takliflar berdik, — deydi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi Xalilillo To'raxo'jayev. — Shuningdek, yig'ilishda tadbirkorlar hamda fuqarolar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatish maqsadida maxsus telegram-bot ishga tushirilgani

ma'lum qilindi. Ayni paytda bu bot orqali faqat iste'molchilar murojaati qabul qilinayapti. Bot ishga tushishidan oldin qo'mitaga bir oyda 300 ga yaqin murojaat kelgan bo'lsa, ishga tushgandan keyin bir haftada 550 dan ortiq murojaat qabul qilindi. Bu orqali biz ayni kunda aholini qanday muammolar qiynayotganini o'rganish bilan birga u yechish va tahlil qilish maqsadida tajribali iqtisodchilarning muzokara platformasini ochdik.



Raqobat

Taqdimotda qayd etilganidek, keyingi uch yilda joylarda raqobatga zid 2 mingdan ortiq hujjat aniqlangan. Ularning aksariyati vazirlik va mahalliy hokimliklar tomonidan qabul qilingan. Shu bois, Raqobat qo'mitasining hududiy boshqarmalari ishini jonlantirish, kadrlar malakasini oshirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Qo'mita faoliyatini jamoatchilikka ochiqlash va ommaviy axborot vositalarida yoritishni kuchaytirish kerakligi ham aytiladi. Bu qonun buzilishining oldini olish, shaffoflik va halollik muhitini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim ekani ta'kidlandi.

Shu maqsadda qo'mitada 30 nafar iqtisodchi va huquqshunos xodimdan iborat maxsus tezkor guruh faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularning asosiy vazifasi — bevosita joylarga borib, qo'mita tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish. Tezkor guruh faoliyati natijasida 296 ta monopoliya va boshqa bozor ishtirokchisining raqobatni cheklovchi, iste'molchilarni kamsituvchi xatti-harakati hamda noto'g'ri reklamasi bartaraf etildi.

Bundan tashqari, viloyat hokimliklari tomonidan 150 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasing raqobatga ta'siri baholandi. O'rganishlar jarayonida ularning 35 foizida raqobatga zid normalar borligi aniqlandi.

Shuningdek, davlat xaridlarida raqobatga zid omillarni bartaraf etish borasida ham qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Bu yo'nalishdagi o'rganishlar jarayonida uch mingdan ortiq holatning 47 foizida raqobatga zid omillar aniqlandi. Xususan, tender va tanlovlarda hech qanday raqobat bo'lmasdan narxlar sun'iy ravishda oshirilgan.

— Qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri — iste'molchilar huquqlarini himoya qilish. Zero, shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroga, kim bo'lshidan qat'i nazar, iste'molchi, — deydi X.To'raxo'jayev. — Shu maqsadda o'tgan davrda suyultirilgan gaz, suv ta'minoti va oqova xizmati, chiqindi tashish, benzin, doridarmon kabi mahsulot va xizmatlarning sifatiz yetkazilgani, ortiqcha haq olingani yuzasidan besh millionga yaqin iste'molchi manfaatli tildandi. Natijada 40 milliard 500 million so'mni ular foydasiga qaytarishga ko'rsatma berildi. Ayni paytda bu summaning qaytarilayotgani monitoring qilib borilyapti.

Prezidentimiz taqdimotida yana bir muhim jihatga e'tibor qaratdi. Bu iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan mustaqil bozor regulatori institutini joriy etish masalalarini. Institut birinchi marta energetika sohasida joriy qilingan edi. Endi buni olti sohada joriy etish rejalashtirilmog'da. Bular — telekommunikatsiya, tabiiy gaz, issiqlik ta'minoti, ichimlik suv va oqova xizmati, transport, yo'l qurilishi. Mutasaddirlarga mazkur yo'nalishda "yo'l xaritasi" ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Ushbu amaliyot rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llab kelinaidi. U tabiiy monopoliya va infratuzilma bilan bog'liq bozorlarga yangi ishtirokchilar, ya'ni xususiy sektor kirib kelishining asosiy omillaridan. Shu orqali sohadagi iqtisodiy samaradorlik va investitsiyaviy jozibadorlik oshadi. Raqobat va iste'molchilar huquqlari ta'minlanishi kuchayadi.



Uyg' oq fikr

Farzand tarbiyalash, unga ilm berish, kasb o'rgatish qadimdan eng mas'uliyatli vazifa sanalgan. O'zbekiston, yoshi ulug'larga hurmat, mehroqibat, oilaga, kindik qoni to'kilgan zamanga sadoqat fazilatlarini kamol toptirish bola tarbiyasida muhim jihatlardan. Mamlakatimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

O'ZGARMAS QOIDA

Keksalar yoshlar tarbiyasiga hamma vaqt mas'ul

Bugungi murakkab, ziddiyatli, turli-tuman axborot oqimi haddan tashqari kuchaygan zamonda yoshlar ongi va qalbini asrash, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish o'ta dolzarb. Yoshlarni illatlar oqimidan himoya qilib, faqat eziguliklar, yaxshiliklar bilan tarbiyalash juda zarur.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan so'zlari naqadar haqiqat ekaniga takror-takror iqrora bo'lyapmiz. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ta'lim va tarbiya to'g'risida to'xtalgan. Bu ikki jarayonga oid holatlarni bayon qilgan va jumladan, bunday fikr bildirgan: "Ta'lim so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish harakati kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsa, kasb-hunarga qiziqsa, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladi".

Barcha davrlarda bolaning odobli, yaxshi xulqli bo'lishiga ota-bobolarimiz, oila, yoshi ulug'lar, mahalla-ko'ya, ustozlar hamjihatlik bilan yondashgan. O'zbekiston, odob va axloq yagona tizimini tashkil etadi. Biri ikkinchisining shakllanishiga asos bo'ladi. Bu tizim jamiyatda mukammal qaror topishi uchun hamma darajada mas'ul. Ammo bola o'sib, ta'lim olish darajasiga yetganda tarbiyachi-ustozning o'rnida alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham "Ustoz otangdek ulug'" degan naql avlodlardan avlodga o'tib, millatimiz qadriyatiga aylalib ketgan.

Xo'sh, bugun ustozning tarbiyadagi o'rni qanday?

Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolaning qalbi har qanday naqsh tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim ustozlari ham sherik bo'ladi. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat yaxshilikka olib bormaydi".

Ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda, shubhasiz, tarbiya ta'limning



Askar G'OIYBOV, O'zbekiston Pensionerlar uyushmasi markaziy kengashi raisi

asosida turishi shart. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlar tarbiyalash ekan, bu jarayonda ta'lim-tarbiya samara beradi, albatta. Bugungi o'qituvchi va muallim fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa, jonkuyar tarbiyachi bo'lishi zarur.

Yoshlarda milliy g'urur shakllanishi lozim. Buning uchun ular o'rtasida o'tkazilayotgan tadbirlar samaradorligiga, ta'sirchanligiga e'tibor berilsa, natija beradi deb o'ylaymiz. Vatanparvarlik tarbiyasi ilmiy asoslar va uslublarga tayinlashi davr talabidir. Vatanni sevdimmoq uchun, avvalo, uning mohiyatini, tarixini, taqdiri va istiqbolini batafsil, chuqur anglatish kerak. Inson uchun vatan bitta bo'lishi, barchaning taqdiri shu vatan taqdiri bilan bog'liqligi dalillar bilan tushuntirilishi ayni muddao.

Inson aql-farosatining yuksaklik darajasi nimada, deb savol berilganda "yaxshi bilim va tarbiyaga ega bo'lishida", desak xato bo'lmas. Buning uchun maktabda o'qitilayotgan fanlar,

ayniqsa, o'qituvchilarning o'quvchilarga munosabati muhim. Mazkur fanlardagi tarbiyaviy jihatlari ustuvor bo'lsa, yuksak ma'naviyatning shakllanishi ham oson kechadi. G'arbda yoshlarga bilim berishda urg'u birinchi o'rinda ta'limga qaratiladi. Sharqda esa ta'lim va tarbiya birga qo'shib olib boriladi. Bu o'z-o'zidan shaxsning ham bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilmu ma'rif, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bu sohada Amir Temur bobomizning "Temur tuzuklari"da aytgan fikrlari beqiyos mazmunga ega: "O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamogga e'tibor berdim. Bu ishini davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasli-nasabi, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar (odamlar) orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasli-nasibi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha



qusurlardan xoli bo'lsagina, el-yurtga katta to'y-tomoshga berib, kelin tushirdim".

Albatta, ta'lim-tarbiya og mahsul, lekin ayni vaqtda ong darajasi va rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omil. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib,

ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Lekin yoshlarimizning ongi, dunyoqarashi qaysi tomonga o'zgarib ketmoqda? Bu savolga javob berish uchun jamoat transportlarida yurib, yoshlarning kiyinishi, yurish-turishi, jamoat joyida o'zini tutishini kuzatish kifoya deb o'ylayman. Hech qanday sotsiologik tadqiqotlarisiz, oddiy kuzatuv yo'li bilan xulosaga ega bo'lishimiz mumkin.

O'smirlik tez o'tib ketadigan, biroq tarbiya uchun muayyan ma'noda xatari davrdir. Tajribalarga ko'ra, yoshlarning salbiy yoki ijobiy tomonga og'ib ketishi shu davrga ko'proq to'g'ri keladi. Mazkur pallada ota-onalar, o'qituvchilar, murabbiylar o'ta ehtiyotkorlik bilan tarbiyaga yondashishi talab etiladi. Ko'proq o'smirlik davrida olingan tarbiya insonning kelajagini belgilab beradi, hayotga yo'naltiradi. Aslida, ana shu paytda yoshlarda

boraga o'xshaydi. Chunki keyingi yillarda yoshlar tarbiyasida yoshi ulug'larning ishtiroki pasayib ketdi. Avvallari ko'p masalalarni hal etishda keksalarning maslahatiga tayanilgan. Mahalladagi yoki qishloqdagi tarbiyasi og'ir bolalar keksalarning ko'ziga ko'rmaslikka harakat qilgan. Chunki yoshi ulug' inson tanbeh bersa, ko'ziga tik qaralmagan.

O'zbekiston kinematografiyasining oltin fondida saqlanayotgan "Suyunchi" filmidagi Anzirat buvi va Xolmat boboning qishloqdagi o'rni bir e'tibor qaratilaylik. Kino komediya janrida yaratilgan bo'lsa-da, qishloqda kattalarning, ya'ni yoshi ulug'larning o'rni aniq-ravshan ko'rsatilgan. Bugun maktabda ustoz o'quvchini ko'ysa yoki qattiqroq gapirsa, ota-onalar o'qituvchini do'pposlamogga. Bu holat ijtimoiy tarmoqlarda muhokamaga qo'yilib, odamlar ikki tomonga bo'linib, bahs-munozara qilsa, nimaga erishamiz? Bizingcha, hech narsaga erishmaymiz. Aksincha, o'qituvchisi bilan aytishadigan, yoqalashadigan o'quvchilar sonini ko'paytiramiz, xolos.

Qonuniy jihatdan qaraganda, bolalar huquqi, inson huquqi, qonun ustuvorligi va hokazo holatlar mavjud. Bu fikrlarga to'liq qo'shilgan holda pensionerlarning, yoshi ulug'larning jamiyatdagi tarbiyaviy yoki hakamlik rolini ko'tarish zarur va bu dolzarb masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Pensionerlar uyushmasi dasturida har bir mahalla va qishloqda uyushmaning boshlang'ich tashkilotini tashkil etish belgilangan. Shu asosda bolalar va yoshlar tarbiyasidagi mas'uliyatni nuroniylik zimmasiga yuklash nazarda tutilgan. Zero, keksalar maktab bilan ota-onalar o'rtasidagi ko'priklar vazifasini bajarishi lozim. Bundan tashqari, joylarda ijtimoiy innovatsiya sifatida "Maktab bobolari" tizimini yo'lga qo'yisak, tarbiya sohasida oldinga 10 qadam tashlagan bo'lamiz. Mahalla, qishloqlardagi jismonan tetik, aqlan teran, oliy ma'lumotli pensionerlar guruhi volontyor sifatida maktablarda o'qimchiga dars va tarbiya ishlarida ishtirok etsa, pandu nasihatlari bilan o'quvchilari o'rtasida subhatar o'tkazsa, bizingcha, tarbiyada o'zgacha yangi yo'nalish paydo bo'ladi. Natijada yoshlar tarbiyasida avlodlar vorisligi yuzaga keladi. Tarbiyaga bunday yondashuv farzandlarimiz axborot maydonidagi ijtimoiy va madaniy buz'unchiliklardan, jamiyatimiz

uchun tamomila begona bo'lgan ekstremistik tashkilotlarning targ'ibot va tashviqotlaridan iborat. Ma'naviy baquvvat yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi deb o'ylaymiz.

Sotsiologiya fanida "shaxsning ijtimoiy-lashuvi" degan tushuncha bor. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs shakllanib borar ekan, shu jarayonni tavsiflash uchun "ijtimoiylashuv" tushunchasi ishlatiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi deganda ijtimoiy mavjudot (inson) ning o'z hayoti davomida oilada, bolalar bog'chasi, ta'lim muassasalarida, jamoada va jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni, madaniy qadriyatlarini o'zlashtirib borishi tushuniladi. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi "shaxsni tarbiyalash", "shaxsni shakllantirish" tushunchalari bilan bog'liq, biroq u kengroq bo'lib, insonga qaratilgan barcha ta'sirni qamrab oladi.

Bu qadriyatlar to'g'ri o'zlashtirilishi esa o'sha oila, ta'lim muassasalari va jamoalarning shaxsa ko'rsatgan ta'siri, yo'nalishi va me'yori bilan o'lchanadi.

Mamlakatimizdagi har bir fuqaro tevarak-atrofdagi yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab yetishi va nuqtayi nazarini bildirishi shart. O'quvchi yoshlar orasida ijtimoiy-siyosiy hamda mafkuraviy dunyoqarashni yuksaltirish, ma'naviyatimizga, milliy qadriyatlarimiz va an'analimizga hurmat tuyg'usini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlariga alohida e'tibor qaratish, ma'naviyatni yoshlar ongiga chuqur singdirishning yangicha uslub va mexanizmlariga qaratish zamon talabidir.

Bugun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot va ma'naviyat, ijtimoiy hayot, sud-huquq tizimi, tashqi siyosat va xavfsizlikni ta'minlash kabi ko'plab yo'nalishlarda erishilgan rivojlanish hamda yuksalish natijalarini yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib etish shart. Yosh avlod qalbi va ongiga mustaqillikning beqiyos ahamiyatini, keng imkoniyatlar manbaiy ekanini, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada chuqur singdirish, mustaqillik yillarida erishilgan eng katta boyligimiz — xalqimizning tinch va osuda hayoti, jamiyatdagi o'zaro hurmat, mehroqibat va bag'rikenglik kabi o'ljanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlariga uyg'un bo'lib yashash tamoyili tobora mustahkamlanib borayotganini anglab yetishiga erishish maktab ta'lim-tarbiya ishlarini istiqbol rejasining muhim bandlarini tashkil etishi kerak. Yoshlarida komil inson fazilatlarini tarbiyalash, dunyoqarashini bunyodkor g'oyalari bilan oziqlantirish, bo'sh vaqtni sermazmun o'tkazish, ma'naviy tadbirlarning ma'rifiy tadbirlar bilan uyg'unligini ta'minlash, intellektual mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish, tashabbus va yangilikni qo'llab-quvvatlash, yur tinchligi va o'zaro jipslikka erishishga doir ko'nikmalarni shakllantirish murabbiylar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardir.

Yoshlarning o'quv muassasasiga oid o'zaro munosabatlardagi odob-axloq tamoyillari, xulq-atvor qoidalari va majburiyatlariga rioya etilishini qattiq nazoratga olish lozim. Ularga rioya qilish o'quv muassasasida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi barkamol avlodni tayyorlashga ko'maklashish, o'quv maskanining jamiyatdagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv muassasalarining asosiy vazifalari esa yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan hamda yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, irodasi baquvvat, yimoni butun va vijdoni uyg' oq yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy immunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish, yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni tashviq qiladigan har qanday xatti-harakatning oldini olishga qaratilishi dardkor. Shuningdek, yoshlarni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan ekstremistik ta'sirlardan himoya qilishga ko'maklashish zarurligini hech qachon unutmaslik kerak.

Ko'zgu

Yaqinda pedagog dugonamizning tug'ilgan kuni munosabati bilan xonadonida mehmon bo'ldik. Hovlidagi ayvondagi gurgulash o'tirsak, to'rt-besh o'quvchi kelib qoldi. Keyin bilsak, tavallud kuni munosabati bilan chiroyli guldastalar ko'tarib kelgan va yoshlarga hamkasbimiz ingliz tilidan repetitorlik qilayotgan ekan. Bolakaylar ustozini bir-bir tabriklab bo'lgach, mezbon hamkasbimiz ulardan birini yonimizga chaqirdi.

Maqsuda ISMOILOVA, Yakkabog' tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

— Bu bolam judayam iqtidorli-da! Hali ko'rsizlar, nasib etsa, maktabni bitirayotgan shu yiliyog' Londondagi eng nufuzli universitetga kirib ketadi...

Holat menga bir oz erish tuyuldi. Maqtovlardan biri gerdayib, qolganlari ko'zlarini mo'ltirab tutgan bolakaylarni ko'rib o'ylanib qoldim... Men ham o'qituvchiman, 24 yildan buyon asosiy vaqtim bolalar, yoshlar orasida o'tmoqda.



Ta'lim-tarbiya sohasida ishlaganim bois, turli fe'l-atvordagi bolalarga duch kelaman. Shuning uchunmi, meni bir mulohaza ko'p o'ylantiradi.

FAQAT A'LOCHILARNI MAQTAYVERISH UNING TENGQURLARI KO'NGLINI O'KSITADI

Hamkasblarim "tarbiyasi og'ir bolalar" degan gapni tez-tez tilga oladi. Bu odil fikr emas. Aytmoqchiman, bolaning yomoni bo'lmaydi. Demak, "tarbiyasi og'ir bolalar" iborasi ham nisbiy tushuncha. Bolaning, bolalikning o'z huquqlari bor. Har qanday bola dunyoga o'z nigohi bilan qaraydi, har birining o'z qarichi, dunyoqarashi bo'ladi. Biz — tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota-onalar va bolaning atrofidagi kattalar ulardagi dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shamiz, xolos. Lekin zinhor ularni to'raligicha o'z yo'rig'imizga solishga, majburan boshqacha fikrlashga o'rgatishga haqqimiz yo'q.

O'zini ziyoli deb hisoblovchi ota ham, ona ham doimo ish bilan band bo'lgan oilalarda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik uchrab turishi tabiiy. Bunday ota-onalar akariyat hollarda farzandlarining kundalik daftardagi baholari bilan cheklanib qoladi. Ularning nazarida, farzandlari yaxshi bahoga o'qiyaptimi, demak, hammasi joyida. Bola bo'sh paytida nima bilan mashg'ul, uning

do'stlari kim, degan savollar ota-onaning xayoliy kelmaydi.

Yana bir masala: har qanday bolaning qiziqishi, intilishi va orzu-umidlariga e'tiborsiz qarash kerak emas. Hatto oilaviy muhiti havas qililish darajada bo'lmagan sharoitda tarbiyalanayotgan ilmga chanqoq, intiluvchan va shijoatli farzandlarga, albatta, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar jamoasi, qolaversa, mahalla ahli jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Chunki bolalarga loqaydlik ularning ko'nglini cho'ktirib qo'yishi, kelajakka intilishini susaytirishi, eng yomoni, kattalarga ishonchiga darz yetkazishi mumkin. Bola atrofga ishonchsiz qaray boshladimi, demak, unda o'ziga nisbatan ham ishonchsizlik paydo bo'ladi.

E'tibor berganimsiz, ota-onalar qobil farzandlari haqida doimo maqtanib gapiradi. Shu kabi o'qituvchilar ham lo'chi o'quvchilari haqida hamisha ijobiy fikrda bo'ladi. Albatta, yaxshi bolani ibrat qilib ko'rsatish kerak. Lekin bu bilan boshqa bolalarning dilini



og'ritib qo'ymaslik lozim. Shuning uchun ham qayerda bo'lmasin — oiladami, bog'cha yoki maktabdami, imkon darajasida "Bu sendan yaxshiroq o'qiydi" yoki "Bu sendan aqlli" deganga o'xshagan so'zlarni gapirmaslik kerak. Bu ham bolaning ko'ngli o'ksitishiga, uning o'ziga ishonchi poymol bo'lishiga olib keladi.

Farzandlarimizni yaxshi tarbiyalash biz

— ota-onalar va pedagoglarning vatanimiz, jamiyatimiz, millatimiz va xalqimiz oldidagi muqaddas burchimiz. Yaxshi tarbiya olish esa farzandlarimizning huquqidir. Keling, ularning shu huquqlarini doimo himoya qilib, yurtga sadoqatli, millatga muhabbatli, ilm olishda ulug' bobolardak shijoatli bo'lishiga o'z hissamizni qo'shaylik.



MUSTAQILLIK MOHIYATINI ANGLASH SAODATI

TAFAKKUR, G'OYALAR VA E'TIQOD ERKINLIGI

Istiqlol o'ylari



Nima uchun tirik jon borki erkin yashashga intiladi? Nafaqat insonlar, balki qushlar, hayvonlar, hasharot-u qumursqalar ham o'z makonini qo'riqlaydi. Yerdan bosh ko'targan har qanday maysa-yu yaproq yonidagilardan mustaqil tarzda quyoshga bo'y cho'zadi. Boshqasining soyasida qolishni istamaydi. Demak, mustaqillik — tiriklikning oliy mazmuni, intilishlarning cho'qqisi, maqsadlarning ustuvori. Inson uchun esa u eng oliy qadriyat sanaladi.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'tiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bilan tanishgach, beixtiyor shu o'ylar xayolimdan o'tdi. Ushbu qarorda hududlarda mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar o'tkazish ham nazarda tutilgan. Bunday uchrashuvlarda, xususan, uch avlod diydorlashuviga nimaga e'tibor qaratish kerak? Qanday yo'l tutasak, yoshlar birlashib vatanga aylanishini teran anglaydi, degan savollarga javob izladim. So'ng o'zimcha bir xulosaga keldim: agar inson hurriyat, mustaqillik aslida nima ekanini anglasa, Vatandegani tuyg'uni yurakdan his etadi. Bu esa bizni o'ylantirayotgan barcha savollarga javob bo'ladi. Xo'sh, mustaqillik nima?

Insoniyat yillar, asrlar mobaynida turli to'qnashuvlar, g'oyaviy-ma'rifiy yuksalish va tanazzullar ta'sirida rivojlanib borgan. Ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy voqealar milliy g'oyalarda mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar o'tkazish ham nazarda tutilgan. Bunday uchrashuvlarda, xususan, uch avlod diydorlashuviga nimaga e'tibor qaratish kerak? Qanday yo'l tutasak, yoshlar birlashib vatanga aylanishini teran anglaydi, degan savollarga javob izladim. So'ng o'zimcha bir xulosaga keldim: agar inson hurriyat, mustaqillik aslida nima ekanini anglasa, Vatandegani tuyg'uni yurakdan his etadi. Bu esa bizni o'ylantirayotgan barcha savollarga javob bo'ladi. Xo'sh, mustaqillik nima?

Zero, mustaqillik va erk milliy va insonparvar g'oyalarning eng asosiy o'zagi hisoblanadi. U faqat inson jinsininggina emas, balki tafakkuri, g'oyalari, e'tiqodi, qadriyatlarining ham

erkinligidir. Buni qadim bitiklar ham tasdiqlaydi. Masalan, zardo'shtiylik g'oyalari o'ziga qadar turli e'tiqod va qarashlar to'qnashuvi bilan ziddiyatlashib kelgan xalqlarni birdamlikka chaqirgan. Hurriyat va tenglik kabi ezgu g'oyalari sabab u umuminsoniy qadriyatga aylangan. Ayni dam bu zamindagilar erkiga raxna soladigan bosqinchilarga qarshi kurashishda ham ma'naviy jipslashuvni yuzaga keltirgan. Illo, odamlarni Ashah — Haqiqat uchun kurashga da'vat etgan.

Mustaqillik har qanday millat birligi va taraqqiyotining ham muhim omilidir. Biz yuqorida bundan qariyb uch yarim ming yillar



avvalgi zardo'shtiylik haqida bejiz eslamadik. Uning muqaddas kitobi "Avesto" qisman bo'lsa-da, bugungacha yo'l bosib kelgan, xalqimiz tarixi, ijtimoiy kelib chiqishi, qarashlari, urf-odatlari, qadriyatlari to'g'risida so'zlovchi eng qadimiy manbalardan biridir. Bu manba xalqimizning azaldan ezgulikka, haqqa tashna va oshno ekanidan, tinchlik va birdamlik g'oyalari ular hayotining asosiy tamoyili bo'lganidan darak beradi. Ular doim butun dunyoda shu ezgu birlikning ustuvor bo'lmog'i, "Ashah — Haqiqatning yer yuzida yoyilmog'i, poydor va ustuvor bo'lmog'i"ni istaydi. Shuningdek, "Avesto"da har qanday adovat, zulm va nizoni aql-farosat, donolik yordamida tinchlik yo'li bilan hal qilmoqlik burch ekanini qutirladi. Inson e'tiqodi bilan bog'liq bunday qarashlar o'sha xalq, jamiyatning butun fikrati qanday ekanini ko'rsatadi. Demak, xalqimiz azaldan butun Yer yuzidagi odamlarga yaxshilikni istagan, milliy fe'lida ham tinchlik, barqarorlik, birdamlikka moyillik aks etib kelgan.

Bundan tashqari, xalqimiz azaldan erksevar bo'lib, ajdodlarimiz hamisha o'zini va yurtini himoya qilishga shay bo'lganiga To'maris, Zarina, Sparetra, Shiroq haqidagi ko'plab afsona va tarixiy rivoyatlar guvohlik beradi. Arxeologik qazishmalar chog'ida ajdodlarimiz uylarini ichkari va tashqari hovli tarzida qurgani aniqlangan. Uylar esa tor va uzun yo'laksifat bo'lib, tomi gumbazsimon bo'lgan. Bundan tashqari, binolar ikki, ba'zida uch qator qalin devorlar bilan o'ralgan. Tomlarida esa kamondan o'q uzish uchun maxsus panjarali istehkomlar qurilgan. Bundan olimlar O'rta Osiyo xalqlari erksevar bo'lib, o'z mustaqilligini himoya qilish



Shahlo AHROROVA, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

uchun hamisha qurol bilan shay turgan, deya xulosa bergan. Aleksandr Makedonskiy, forsiy podshohlar, arablar, mo'g'ullar hamda boshqa bosqinchilar bilan mardonavor kurashgani haqida ham ilmiy asoslar bor. Bunday kurashuvchilik, vatanparvarlik g'oyasi qanday singdirildi? Yuqorida qayd etganimiz "Avesto" misolida bunga javob izlasak. Qadim bitikda ma'bud Mitradan so'raladi:

Yaylovlari hududsiy Mitra, Dushmanlarni olis-olisdan Kuzatmoqlik imkonin bergil, Kim, bir zarbda yakson etaylik, G'animlarni yakkama-yakka Kunpuyakun aylaylik butkul Bizga xasim barcha-barchani... Sig'inamiz baxt, shodlik haqqi.

Bundan kelib chiqadiki, ajdodlarimiz hech qanday tobelik, mutellikka ko'nmagan, uni tan olmagan. Mustaqillik uchun erkin va ozod bo'lishning o'zi kifoyati qilmaydi. Mustaqillikning mohiyatini anglash, asrab-avaylash bilan o'z qadriyatini topadi. Bu jahada ajdodlarimiz kim bo'lgani va ular mustaqillikni qanday qadrlaganini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.



Bizga ma'lum qariyb uch yarim ming yillik hayoti davomida O'rta Osiyo xalqlari juda ko'p talato'plarni, kurashlarni boshidan kechirdi. Tashqi hujumlar xonliklar, amirliklar o'rnatidagi ichki kurashlardan xalq aziyat chekdi. Shu jumladan, XIX asrning 60-yillarida chor Rossiyasining mustamlakasiga aylantirishiga ham aynan shu ichki nizolar, xonliklarning bir-birini qo'llamasligi sabab bo'ldi. XIX asrning oxiri — XX asrning boshida ma'rifatparvar jadidlar harakati mustaqillik uchun ma'rifat, ilm birla kurashish maqsadida oldingi safga chiqqan yangi sinf sifatida shakllandi. Ular o'z oldiga ikkita maqsadni qo'ygan edi: biri — mustabid tuzum changalidan xalos bo'lish, ikkinchisi — demokratik tamoyillarga asoslangan, jahon sivilizatsiyasi oqimida o'z o'rini topa biladigan yangi jamiyat tuzish. Juda katta sa'y-harakatlar bilan 1917-yilda Qo'qon muxoriyati tashkil etildi. Biroq u 1918-yilda bosqinchilarning beshafqat zulmi ostida barham topdi. Shundan so'ng chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati sovet tuzumining niqoblangan "yangi libos"ini kiydi. 130 yil davom etgan bu istibdod yurtimiz va xalqimiz uchun juda katta yo'qotishlarni olib keldi. Jadidlar xalqning siyosiy ongini yuksaltirish, ma'rifatparvarlik tamoyillari asosida xalqni mustaqillik va demokratik qarashlarga tayyorlash kerak, degan g'oyani asos qilgan edi. Sovet tuzumi esa, aksincha, milliy o'zlikni barham toptirish, xalqlar va millatlarni birlashtirish, boshqaruvni markazlashtirish niqobi ostida davlatlarni, xususan, O'rta Osiyo respublikalarini tobelik ostida ushlab siyosatga asoslangan kommunistik g'oyani singdirirdi. Yillar davomida xalqlarni mustaqillik harakati olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday omillarni yo'q qilishga urinib keldi. Xalqning ergashiruvchi qismi bo'lgan ma'rifatparvar, millat ziyolilarini ayamay qatag'on qildi. Olimlarimizning ta'kidlashicha, O'zbekistondan 64 ming 39 hamyurtimiz qatag'on qilingan. Xalqning ergashuvchan qismi uchun esa kuchli mafkuraviy tizim yaratildi.

Hind siyosiy arbobi Mahatma Gandi zo'rvonlikka asoslanib g'alaba qilgan har qanday siyosiy kurash vaqti kelib, albatta, mag'lubiyatga yuz tutadi, degan edi. XX asrning saksoninchi yillaridan keyin sovet tuzumidan ham putur keta boshladi. Chunki uning tobeligidagi davlatlar xalqlarining qalblarida kul ostida yotgan mustaqillik g'oyalari allaqachon cho'g'lana boshlagan edi. Cho'kayotgan odam xasga ham yopishgani kabi mustabid tuzum

o'z mavqeyini ushlab qolish uchun so'nggi chorlarni ko'ra boshladi. "Paxta ishi" kabi turli nayranglarni o'ylab topdi. Bo'lmag'ur ayblov va tuhmat bilan 800 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi. To'rt ming hamyurtimiz hibsga olindi. Bu ham mustaqillik yo'lidagi o'tkir sinovlardan biri edi. Shu bois, garchi mamlakatimizda mustaqillik parlamentari yo'l bilan qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, bu juda katta ham siyosiy, ham g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar evaziga amalga oshirildi.

Biz mustaqilligimiz o'z-o'zidan kelmagani eslash uchun tarixga bir qur nazar solдик, xolos. Shukrlar bo'lsin, mustaqillikni erishdik. Ayrim ajdodlarimiz, ota-bobalarimiz bu laziz ne'matning ta'mini tota olmadi. Bizga hurriyatni ko'rish, lazzatidan bahramand bo'lish nasib etdi! Dunyo xaritasida O'zbekiston degan mustaqil davlat paydo bo'lganini, jahon sahnida o'zbek bayrog'i hilpirashini ko'rish-u madhiyamiz yangrashini eshitish, dunyoga o'z o'zimiz bilan yuzlanish, o'z "men"imizni namoyon etish, o'z tilimizda so'zlash, qo'yingiki, o'zligimizni ko'rsatish hissini tuyish baxti nasib etdi! Bularning hammasi mustaqillik ato etgan baxtdir!

Ha, biz mustaqil bo'ldik, ulkan odimlar bilan o'tiz uchinchi marraga ham yetib keldik. Endi oldimizda mustaqillikni mustahkamlash, buyuk ajdodlar nasli ekanimizni yana bir bor isbotlab, jahon sivilizatsiyasiga buyuk kashfiyotlar, yuksak ilm-u ijod bilan hissa qo'shish, rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishdek yuksak vazifa, mas'uliyat turibdi. Bunday mas'uliyatni o'qillik bilan ado etish xususiyati ajdodlardan meros. Buni yuqorida bot-bot takrorladik. Faqat qonimizdagi o'sha tug'yonlarni uyg'otish, jo'sh urdirish uchun "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan g'oya atrofida birlashishimiz zarur. Shu orqali yangi g'oyalari, ochiqlik va adolat sari yangi odimlar, yangi maralar bilan yangilanyotgan vatanga o'z hissamizni qo'shamiz. Yurtimizda inson qadrligini eng oliy o'ranga qo'yilayotgani zamirida ham, aslida, uning erkini ta'minlash, insoniy istaklarini ro'yobga chiqarishdek ezgu niyat bor. Ya'ni bir vaqtlar ajdodlarimiz o'z axloqi, hayotiy qarashlari orqali inson haqu-huquqlarini ta'minlagan. Zamonaviy dunyoda esa o'sha qadriyatlarimiz ma'no-mazmunini o'zida jamlagan Konstitutsiyamiz orqali haqu-huquqlarimiz mustahkamlangan. Ayni damda yangi O'zbekistonda tashqi siyosat xalqlar orasida o'zaro hurmat, do'stlikka asoslanishiga e'tibor berilmoqda. Bu ham ajdodlardan meros qadim bitiklardagi ezgulik tarannumi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Illo, oqqan daryo oqmay qolmas!

o'z mavqeyini ushlab qolish uchun so'nggi chorlarni ko'ra boshladi. "Paxta ishi" kabi turli nayranglarni o'ylab topdi. Bo'lmag'ur ayblov va tuhmat bilan 800 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi. To'rt ming hamyurtimiz hibsga olindi. Bu ham mustaqillik yo'lidagi o'tkir sinovlardan biri edi. Shu bois, garchi mamlakatimizda mustaqillik parlamentari yo'l bilan qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, bu juda katta ham siyosiy, ham g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar evaziga amalga oshirildi.

Biz mustaqilligimiz o'z-o'zidan kelmagani eslash uchun tarixga bir qur nazar solдик, xolos. Shukrlar bo'lsin, mustaqillikni erishdik. Ayrim ajdodlarimiz, ota-bobalarimiz bu laziz ne'matning ta'mini tota olmadi. Bizga hurriyatni ko'rish, lazzatidan bahramand bo'lish nasib etdi! Dunyo xaritasida O'zbekiston degan mustaqil davlat paydo bo'lganini, jahon sahnida o'zbek bayrog'i hilpirashini ko'rish-u madhiyamiz yangrashini eshitish, dunyoga o'z o'zimiz bilan yuzlanish, o'z "men"imizni namoyon etish, o'z tilimizda so'zlash, qo'yingiki, o'zligimizni ko'rsatish hissini tuyish baxti nasib etdi! Bularning hammasi mustaqillik ato etgan baxtdir!

Ha, biz mustaqil bo'ldik, ulkan odimlar bilan o'tiz uchinchi marraga ham yetib keldik. Endi oldimizda mustaqillikni mustahkamlash, buyuk ajdodlar nasli ekanimizni yana bir bor isbotlab, jahon sivilizatsiyasiga buyuk kashfiyotlar, yuksak ilm-u ijod bilan hissa qo'shish, rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishdek yuksak vazifa, mas'uliyat turibdi. Bunday mas'uliyatni o'qillik bilan ado etish xususiyati ajdodlardan meros. Buni yuqorida bot-bot takrorladik. Faqat qonimizdagi o'sha tug'yonlarni uyg'otish, jo'sh urdirish uchun "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan g'oya atrofida birlashishimiz zarur. Shu orqali yangi g'oyalari, ochiqlik va adolat sari yangi odimlar, yangi maralar bilan yangilanyotgan vatanga o'z hissamizni qo'shamiz. Yurtimizda inson qadrligini eng oliy o'ranga qo'yilayotgani zamirida ham, aslida, uning erkini ta'minlash, insoniy istaklarini ro'yobga chiqarishdek ezgu niyat bor. Ya'ni bir vaqtlar ajdodlarimiz o'z axloqi, hayotiy qarashlari orqali inson haqu-huquqlarini ta'minlagan. Zamonaviy dunyoda esa o'sha qadriyatlarimiz ma'no-mazmunini o'zida jamlagan Konstitutsiyamiz orqali haqu-huquqlarimiz mustahkamlangan. Ayni damda yangi O'zbekistonda tashqi siyosat xalqlar orasida o'zaro hurmat, do'stlikka asoslanishiga e'tibor berilmoqda. Bu ham ajdodlardan meros qadim bitiklardagi ezgulik tarannumi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Illo, oqqan daryo oqmay qolmas!

Mulohaza



Yashash qulaylashib, texnika taraqqiyoti mushkulimizni yengil qila boshlagani sari ma'naviy munosabatlar murakkablashib borayotgandek, nazarimizda. Jamiyatdagi ishonchsizlik, hafsalasizlik va asabiylik kuchaygandan kuchaymoqda. Begonalar tugul, qondoshlarning ham bir-biriga toqati yashashi tobora qiyinlashgandek. Buning ortidan esa milliy qadriyatlar aziyat chekayotir.

Ayniqsa, asabiylik yosh oilalarni qiyin ahvolga solayotgani achinarli. Arzimagan vajlar ajralishlarga sabab bo'lyapti. Buning boisini esa "Teng tengi bilan..." maqoliga rioya qilmaslikka yo'ymoqdamiz. Bu to'g'rimi? Shu xulosalar tufayli ayrimlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zbekchilikni qoralab, allaqachon yuzlab qadriyatlardan voz kechish vaqti keldi, deya ayuyuhannos solyapti. O'zbekchilikdagi avlodlarni surishtirib uylanish udumi xato, G'arb bu masalada to'g'ri yo'lda, ya'ni kelin-kuyov nikohdan oldin kamida 1-2 yil birga yashab ko'rish, bir-biriga mos kelsa, keyin nikohdan o'tib, to'y qilishi maqsadga muvofiq emish. Eng qizig'i, bu kabi takliflar katta bahs maydoniga aylangan. Undan ham qizig'i esa

QADRSIZLANAYOTGAN QADRIYATLAR

bunday "tashabbus"lar tevaragida allaqachon tarafdorlar to'planib ulguragan. Ularga singling yoki opangning biror erkak bilan nikohsiz yashashga rozi bo'larimding, deb savol berilsa, mum tushlaydi-qoladi.

Insonning tabiatan ozod yashashga haqqi bor, biroq erkinlik ekan, deya otaboblar ming yillar davomida amal qilgan qadriyatlarining kulini ko'kka sovurishigayam haqqi bormi? Yoki ayrimlarga til xayoliga kelgan gapni o'ylab o'tirmasdan ayitish uchun berilganmi? Aslida, o'zimiz to'g'ri deb bilgan fikrni butun jamiyat uchun asosli deiyish odati qachon paydo bo'ldi?!

Bugun axborot oqimini to'shning imkonini yo'q. Undan himoyalash mumkin, xolos. Biroq jamiyatimizdagi yalpi blogerlashuv himoyalashni ham tobora murakkablashtirib yuboryapti. E'tibor bersangiz, odamlarga qiziq masalalarda har kim har xil yondashuvga ega, lekin ularning qaysi biri to'g'ri — ana shu muammo. Bundan esa zarar ko'rayotgan



qatlam bolalardir. Borgan sari oila institutiga otuvchilar soni ortyapti, ammo himoyasi uchun hech narsa qilmayapmiz. Hammaga mashhur bir filmda mahbus arzimagan uskuna bilan qamoqxona devorini teshadi hamda qochishga muvaffaq bo'ladi. Uning yutug'iga muttasil harakati sabab bo'lgan. Xuddi shunday oila institutiga tosh otuvchilarning

xavfli tomoni — niyatini amalga oshirish uchun tinmayotganida. Bizdan esa tayinli javob chiqmayapti. Jamiyatda ayollar huquqini mustahkamlash bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Biroq bu sa'y-harakatlarni ko'rib ko'rmaslikka olayotgan toifa tag'in oilalarga hujum qilmoqda.

Gender tenglik jamiyatda ayollarning barcha huquqlardan erkaklar bilan barobar foydalanishini anglatadi. Biroq ayrim ayollar buni bo'rttirib tushungan holda oilada erga bepisan bo'lish kabi odatlar bilan boyitmoqda. Bizning madaniyatimizda gender tenglik doim ta'minlangan. Shunchaki vazifalar bo'lib olingan, xolos. Masalan, farzandlarni parvarishlash, og'yuvib, oqi tarash, ro'zg'or yuritish onaning, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, himoya qilish otaning zimmasida. Asosiy mas'uliyat baribir erkakning zimmasida qolgan.

Jahon tajribasiga nazar salsak, yapon jamiyati gender tenglik namunasini

allaqachon amaliyotda sinab bo'ldi. Bugun ular aynan shu tizim asosida yashamoqda. Oqibat shuki, haddan tashqari og'ir mehnat qilgan ayollarga erkaklarning rahmi kelmaydi. Oilaning xarajati er va xotin o'rtasida teng taqsimlanadi. Rafiqasining ko'nglini ko'taradigan, unga minnatdorlik tariqasida sovg'a beradigan erkak juda kam topiladi. Shu tufayli bugun oilajon erkaklarga yetishish — yapon ayollari uchun orzu. Xo'sh, qanday xato taraqqiyparvar jamiyatni bunday fojiga yetaklab keldi? Sababi oddiy: yashirin kuchlar yapon ayollarini o'z huquqlarini talab qilishga undadi. Erkaklar esa ularning istagini amalga oshirdi. Statistika ko'ra, odamlarning o'z joniga qasd qilishi bo'yicha kunchiqar davlat oldingi o'rinlarda turar ekan.

Hech kim tashqaridan kelib, bizga to'g'ri yashashni o'rnatmaydi. Biz baxtli turmushni otaboblarimiz asrlar davomida amal qilgan e'tiqod hamda madaniyatimizdan andaza qilib olishimiz zarur. Bu haqiqatlar haqida vaqtda o'yalmaslikning esa badali og'ir bo'lishi mumkin. Zero, "yo'qolgan shahar" nomi bilan rivoyatlarda qolgan Atlantida shahrini tiklashning iloji bordir, biroq yo'qotilgan qadriyatlarimiz o'z holicha tiklash butunlay imkonsiz.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 2574. 41126 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhir: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy